

**UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM JARAYONIDA SHAXSGA QO'YILADIGAN O'QUV
TALABLARI. SHAXS FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

Toshkent Tibbiyat Akademiyasi “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи o'qituvchisi

Abdurahmonov Shahzod Ilhamovich

Toshkent Tibbiyat Akademiyasi “Tibbiy Pedagogika” fakulteti 3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola shaxsning uzluksiz ta'lism jarayonidagi majburiyatlarini yoritib berishga, shaxs faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rGANISHGA bag'ishlanadi.

Tayanch tushunchalar: Davlat Ta'lism Standarti (DTS), Ta'lism to'g'risidagi qonun, bakalavriat, magistratura.

Аннотация: Данная статья посвящена уточнению обязанностей человека в процессе непрерывного образования, изучению факторов, влияющих на деятельность человека.

Ключевые слова: Государственный Образовательный Стандарт (ГОС), Закон об образовании, бакалавриат, магистратура

Annotation. This article is devoted to clarifying the responsibilities of a person in the process of continuous education, the study of factors influencing human activity.

Key words: State Educational Standard (SES), Law on Education, bachelor's, master's degree.

O'zbekiston Respublikasi “Ta'lism to'g'risida”gi qonuning maqsadi ta'lism sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lism to'g'risida”gi qonuni 2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-sonli bilan tasdiqlandi. Mazkur qonun kuchga kirgach, O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi 463-l-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 11-12, 295-modda), O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta'lism to'g'risida”gi 464-l-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 9, 225-modda) va boshqa bir qator qonun osti hujjatlari o'z kuchini yo'qtdi.

Yangi qonun tahriiga muvofiq ta'lism sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta'lism ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lism olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lism sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lism olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lism va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta'lism va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvinining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Mazkur qonunga muvofiq ta'limning quyidagi turlari farqlanadi:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DAVLAT TA'LIM STANDARTI - umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat bo'lib, boshlang'ich (1 — 4-sinflar) va umumiy o'rta ta'lim (1 — 9-sinflar)ni qamrab oladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti boshlang'ich hamda umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasini belgilab beradi. Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim predmetlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

"Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi" (TXSK 2011)ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida bakalavriat 6-malaka darajasiga, magistratura 7-malaka darajasiga mansubdir.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahsil olish imkonini berishi lozim.

Bakalavr va magistrlnarni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga "bakalavr" akademik darjası, magistrlik dissertatsiyasını muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga "magistr" akademik darjası hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari ("Double degree") asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish imkoniyatlari:

1.Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalavriat yo'nalishlari uchun o'qishni davom ettirish bo'yicha magistratura mutaxassisliklarining ro'yxatini oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

2.Magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni 6 – bobida Ta'lif oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatli ko'rsatib o'tilgan:

Ta'lif oluvchilar quyidagi huquqlarga ega:

bepul asosda umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lif va boshlang'ich professional ta'lif olish;

yashash joyidagi (mikrohududdagi) davlat umumiy o'rta ta'lif muassasasiga qabul qilinish;

ta'lif olish shakllarini erkin tanlash;

davlat ta'lif standartlari, davlat ta'lif talablari va o'quv dasturlariga muvofiq sifatli ta'lif olish;

ta'lif olish uchun o'zining ruhiy xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi inobatga olingan holda zarur shart-sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek bepul psixologik-tibbiy xizmatlardan foydalanish;

davlat ta'lif muassasasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq, professional ta'lif va oliy ta'lifning davlat ta'lif standartlari talablariga binoan ishlab chiqilgan, o'zi oladigan ta'lifning mazmunini shakllantirishda ishtirok etish;

pedagog xodimlar va ta'lif-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog'lig'iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo'ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalanish;

ta'lif olish davrida dam olish va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta'tillar olish;

akademik ta'tillar va stipendiyalar olish, o'qishni tiklash va o'qishini boshqa ta'lif tashkilotlariga, bir ta'lif shaklidan, kasbdan, ta'lif yo'nalishidan, mutaxassisligidan boshqasiga ko'chirish;

ta'lif tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

ta'lif olish jarayonida ta'lif tashkilotining o'quv, uslubiy, ilmiy-ishlab chiqarish, madaniy, sport va maishiy obyektlari xizmatlaridan bepul foydalanish;

ta'lif tashkilotining ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik, ilmiy-texnikaviy, eksperimental va innovatsion faoliyatida ishtirok etish.

Ta'lif oluvchilar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ta'lif tashkilotlarida ta'lif oluvchilarni ta'lif olish bilan bog'liq bo'Imagan ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

Ta'lif oluvchilarning majburiyatli:

Ta'lif oluvchilar:

1.o'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashg'ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rishi, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi;

2.ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik ishlatmasligi va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilmasligi;

3.ustav (ta'sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi;

4.axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamol topishga hamda o'z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi;

5.ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

6.ta'lim tashkilotining mol-mulkini, moddiy va madaniy boyliklarini asrashi shart.

Ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga nisbatan qo'yiladigan talablar:

1.Ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

2.Maktabdan tashqari ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash turlari bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablarni mustaqil belgilashga haqli.

3.Ta'lim oluvchilarning ayrim toifalari O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobidan kiyim-bosh bilan ta'minlanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joiz-ki, har bir ta'lim muassasasi uzlusiz ta'lim jarayonida mutahasisligiga aloqador bo'lgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish uchun o'zining ichki nizomiga shaxsga bo'lgan qo'shimcha talablar (ustavlar) kiritishi mumkin, chunki talablarga javob bera oladigan uzlusiz ta'lim ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

6. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.

7. Akhmedova, M., Narmetova, Y., & Alisherov, B. (2021). Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel.

8. Sharapova D.B. [KASALLIKKA MUNOSABATNI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.](#) International scientific-online conference FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2022.

9. <https://lex.uz/acts/-1205976#-1206357>

10. <https://lex.uz/docs/-5013007>

11. <https://lex.uz/docs/-361387?ONDATE=16.08.2001%2000#-361877>

12. <http://e->

[library.namdu.uz/uzluksiz talim jarayonida pedagog faoliyatining orni](http://library.namdu.uz/uzluksiz_talim_jarayonida_pedagog_faoliyatining_orni)